

So'z saltanatining sultonlari

2018 yil 16 fevral kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4-sonli talabalar turar joyi tarbiyachi pedagogi Javlonbek Qutlimurotov boshchiligida talabalar bilan hamkorlikda Sergey Borodin uy-muzeyiga borishdi.

Sergey Borodin uy-muzeyi tomonidan davlat arboblari Zahiriddin Muhammad Bobur va Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan "So'z saltanatining sultonlariga ehtirom" mavzusida madaniy-ma'rifiy, badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekistonda xizmat kursatgan madaniyat xodimi, shoira, jurnalist - Abdusamatova Muqaddas Solixovna, O'zbekiston xalq hofizi, "Do'stlik" ordeni soxibi, san'atshunoslik faxriy doktori, mehnat faxriysi - Hasan Rajabiy, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi o'zbek musiqa fakulteti an'anaviy cholg'u ijrochiligi kafedrasida katta o'qituvchisi - Ilyos Arabov, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi "Tong yulduzi" gazetasi bulim muharriri - Axtamquli, O'zbek milliy akademik drama teatri aktyorlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shohida Ismoilova, "Shuhrat" ordeni sohibi Hamza Hasanovlar ishtirok etishdi.



4 -TTJ tarbiyachi pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov